

Viloyat hokimi A.Boboyev Qo'shrabot tumanida ro'y bergan kuchli shamoldan aziyat chekkan xonadonlarga bordi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida "Sahihul Buxoriy" xatm qilindi

Iste'molchilar foydasiga qariyb 11 milliard so'm mablag' qayta hisob-kitob qilingan

Samarqandda qurilayotgan 30 qavatli bino qurilishida kamchiliklar aniqlandi



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 11-fevral, chorshanba,
13 (24.193)-son

O'zbek xalq
maqoli

Bekorchining
beti yo'q,
qozon osar
eti yo'q

Zarafshon



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz



Deputatlar jinoyatchilik va hududlar rivoji masalalarini muhokama qildi

9-fevral kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining yigirma oltinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiya ishini Kengash raisi Shuhrat Negmatov boshqardi.

Kun tartibiga ko'ra, dastlab viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i Tohir Aripov viloyatda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot berdi.

Ta'kidlanishicha, o'tgan yilda viloyat hududida 15998 ta jinoyat qayd etilib, 2024-yilga nisbatan 6596 taga oshgan. Bu jinoyatlarning 5156 tasi yoki 32 foizi oldini olish mumkin bo'lgan, 3241 tasi yoki 20 foizi aniqlangan, 7601 tasi yoki 47 foizi axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlarni tashkil qilgan. Jinoyat turlaridan qotillik 3 foizga, bosqinchilik 30 foizga kamaygan.

- 2025-yilning sentabr oyidan boshlab, "Samarqand tajribasi" sifatida viloyat hududida jinoyatlarning barvaqt oldini olish va profilaktikasini ta'minlash maqsadida belgilab olingan yo'nalishlar o'z samarasini berdi, - dedi viloyat

ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i T.Aripov. - Ya'ni, hodisa joyiga 5 daqiqada yetib borish tizimi yo'lga qo'yildi. "112 tizimi" bo'yicha kelib tushgan jami 110266 ta xabarning 109079 tasiga 8 daqiqagacha, 971 tasiga 8-15 daqiqagacha, 216 tasiga 15-30 daqiqagacha bo'lgan vaqt oralig'ida yetib borildi.

Shuningdek, "112 tizimi" orqali fuqarolar-dan kelib tushgan xabarlar kunlik tahlil qilinib, eng ko'p murojaat tushayotgan shahar, tuman, mahalla, ko'cha va xonadonlar aniqlanib, xabarlarning turlari bo'yicha boshqarmaning tegishli sohaviy xizmatlaridan mas'ullar birlashtirilgan holda muammolar o'z vaqtida hal etilmoqda. Natijada, og'ir oqibatlariga olib keluvchi 2 mingga yaqin jinoyatning oldi olindi. Takroriy murojaatlarning kamayishi hisobiga umumiy murojaatlar soni keskin qisqardi, ichki ishlar organlari xodimlari ustidan kelib tushayotgan murojaatlar ikki baravarga kamaydi.

Sessiyada deputatlar viloyatda jinoyat sodir etilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlash bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijalari, shuningdek, tan jarohati yetkazish, kiberjinoyat, yo'l-transport hodisalari, jamoat joylaridagi va oilaviy janjallarning tah-

lillari, jinoyat va huquqbuzarlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderlari berilishi bilan bog'liq savollariga javob olishdi.

Shundan so'ng Narpay tumani hokimi Anvar Boliyev tumanni 2025-yilda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar va 2026-yilgi rejalar yuzasidan hisobot berdi.

Hisobotda keltirilishicha, 2025-yilda tumanga 156 milliard so'm mablag' ajratilgan. Shuningdek, yil yakunida sanoat hajmi 1 trillion 280 milliard so'mni, xizmatlar hajmi 1 trillion 453 milliard so'mni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 trillion 929 milliard so'mni, qurilish-pudrat ishlari hajmi 221,9 milliard so'mni tashkil etgan. 20,9 ming nafar fuqaroning bandligi ta'minlanib, ishsizlik darajasi yil boshidagi 5,6 foizdan 5,1 foizga tushgan, 3,7 mingta oila kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasi 7,6 foizdan 5,3 foizga qisqartirilgan.

- 2026-2027-yillarda tumanimiz mahallalari infratuzilmaviy loyihalari uchun 304,3 milliard so'm yo'naltiriladi, - dedi A.Boliyev. - Masalan, investitsiya dasturi doirasida 2 ta maktab, 2 ta bog'cha, 2 ta tibbiyot maskani quriladi, Xalqobod mahallasi ichimlik suvini yaxshilash hamda M-37 avtomagistral yo'lining 139-kilometrini ta'mirlash uchun 71,3 milliard so'm, "Qishloq infratuzilmasi" va "O'rta shaharlar" loyihasi doirasida Sarbozor, Istiqloq, Navro'z va Nog'oraxon mahallalarini rivojlantirish uchun 75,3 milliard so'm mablag' ajratiladi.

Sessiyada xalq deputatlari viloyat Kengashidagi doimiy komissiyalar a'zolarining Narpay tumanida olib borgan o'rganishlari natijalari hamda kuzatilgan kamchiliklar tahlil etildi. Mavjud muammolarning yechimi bo'yicha kelgusida qilinishi lozim bo'lgan vazifalar belgilandi.

Sessiya ishida Kattaqo'rg'on shahri, Payariq, Kattaqo'rg'on, Bulung'ur tumanlaridagi samarasiz kichik sanoat zonalarini tugatish to'g'risidagi, viloyatda 2025-yil "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida tanlangan mahallalarda elektr energiyasini barqaror yetkazib berilishini yaxshilash va ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha dasturga kiritilgan takliflarni ko'rib chiqish to'g'risidagi, "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman va mahalla maqomi berilgan tumanlar va mahallalarda "Taraqqiyot va yetakchilik maskani" dasturining asosiy yo'nalishlari, infratuzilma loyihalari manzilli dasturini tasdiqlash to'g'risidagi va Kengash vakolatiga doir boshqa masalalar ko'rib chiqilib, qarorlar qabul qilindi.

► Senator mulohazasi

NE'MATLARIMIZ DUNYOGA TATTYAPTI

Bugungi kunda O'zbekiston bozorlari ne'matlar sarxilligi bilan manaman degan davlatlarnikidan qolishmaydi. To'g'ri, xorijdan keltirilgan meva-chevalar ham bor, lekin mahsulotlarning katta qismi aynan mamlakatimiz zaminida yetishtirilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonning eksport qilinayotgan noz-ne'matlarining turi ham, hajmi ham ko'payib bormoqda. Chunki serquyosh o'lkamizda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari xalqaro bozorlarda juda xaridorgir. Bu holat faqat bizdagi quyosh tafti-yu zaminimiz boyligi bilangina emas, dehqonlarimizning hozirgi davr talabiga mos ishlayotgani bilan ham baholanadi. Ming afsuski biz hali davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan to'la foydalana olmayapmiz. Shu sababli qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning yangicha sifat usuliga o'tish choralari ko'rilmoqda. Oliy Majlis Senatining navbatdagi majlisida «Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi to'g'risida»gi Qonunning ma'qullanishi ana shu harakatlar davomidir.

Tabiiyki, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bevosita qishloq xo'jaligi, ya'ni dehqonchilik bilan bog'liq. Ayniqsa, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida bu sohaning talablari xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu qonun 5 bob va 44 moddadan iborat.

Ushbu qonunning amal qilish obyektlari xalqaro qonunchilik, ya'ni Alemtarius kodeksi talabi bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, unda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashning asosiy prinsiplari belgilangan. Bu jarayonda davlat organlarining vakolatlari aniq ko'rsatilgan, xususan, oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi bo'yicha idoralarga kengash yo'lga qo'yiladi. Bundan tashqari oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi sohasidagi sanitar-tarbiya choralari, qoida va normalarni ishlab chiqish va qo'llash tartibi sanitar-tarbiya va fitosanitariya choralari qo'llash bitimi talablari bilan uyg'unlashtirilgan. Qonunga oziq-ovqat mahsulotining chiqindilarini kamaytirish va yo'qotishlarining oldini olish bo'yicha ham norma kiritilgan. Shuningdek import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotini nazoratdan o'tkazish, eksport uchun toza mahsulot tayyorlash va bu boradagi nazorat tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish belgilab berilgan.

Bir so'z bilan aytganda, oziq-ovqat mahsulotini import va eksport qilishdagi talablar xalqaro andazalarga moslashtirildi. Men rahbarlik qilayotgan kompaniya bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtir-

ish bilan shug'ullanayotganligi uchun ham ushbu qonunning juda dolzarb ekanligini ta'kidlamochim. Negaki, dunyo bozori nihoyatda nozik va talabchan. Ayniqsa, organik mahsulotlarga ehtiyoj kuchaygan sari bizning mas'uliyatimiz ham ortib bormoqda. Shuning uchun joylardagi bog'-rog'larimizda tomchilatib sug'orishni yo'lga qo'yish barobarida noz-ne'matlarimizning yangi navlarini yaratishga ham alohida e'tibor beryapmiz. Hozircha respublikada sanoqchilardan biri hisoblangan "Invitro" laboratoriyamiz uch yildirki, o'zining samarasini ko'rsataypti. Biz mahalliy mevalarning yangi navlarini yaratish barobarida ulardan olingan hosilni eksport qilishga ham ulgurdi. Birgina o'tgan yili 60 million dollarlik meva-cheva eksport qildi.

Xalqaro bozor bozori ekanligini aytdim. Bu bezir emas. Xaridorlarimiz o'zlari oladigan mahsulotlari yetishtiriladigan joylarni, ishlatiladigan preparatlarni ham o'rganib, ko'radi. Agar bu jarayon to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, Yevropadagi maxsus tashkilot tomonidan «BRS» sertifikati beriladi. Biz ana shunday sertifikatga egamiz va uch yildirki, uni uzaytirib berishyapti.

Biz endi nafaqat servitami, mazali, foydali noz-ne'matlar yetishtiramiz, balki jahon bozorini egallash ustida ham bosh qotirishimiz zarur. «Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi to'g'risida»gi Qonun ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

2026-yil 6-fevralda davlatimiz rahbari qabul qilgan "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohobqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaror milliy tarixiy xotirani mustahkamlash, harbiy-vatanparvarlik ruhini yuksaltirish, Vatanga sadoqat va milliy g'urur tuyg'ularini yanada kuchaytirishga qaratilgan muhim siyosiy-ma'naviy hujjat bo'ldi.

Amir Temur jahon tarixida yirik davlat barpo etgan sarkarda, oqil davlat arbobi sifatida chuqur iz qoldirgan. Uning boshqaruv

Amir Temur merosi ulug'lanadi



falsafasi adolat, qat'iy tartib-intizom, qonun ustuvorligi, ilm-fan va ma'rifatga tayangani bilan ajralib turadi. Samarqandni poytaxt qilib, uni jahon sivilizatsiyasining yirik markazlaridan biriga aylantirgani, me'morchilik, ilm va madaniyat

ravnaqiga keng yo'l ochgani tarixchilar tomonidan alohida e'tirof etiladi.

Chunki Sohobqironning ma'naviy va davlatchilik merosi yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat, fidoyilik va milliy iftixor ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, "Temur tuzuklari" asarida bayon etilgan davlat boshqaruvi, rahbar mas'uliyati va jamiyat adolatiga oid g'oyalari bugun ham dolzarbligicha qolmoqda.

Qarorga muvofiq, joriy yilda Amir Temur tavalludining 690 yilligi respublikamiz miqyosida keng nishonlanadi. Har yili aprel oyi "Amir

► Prezident qaroriga ko'ra

Temur oyli" deb e'lon qilinib, ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladi.

Shuningdek, "Temur tuzuklari"ning ilmiy izohli matnini xorijiy tillarda nashr etish, tarixiy qo'lyozmalar, ilmiy-ommabop kitoblar va albomlar tayyorlash nazarda tutilgan.

Biz, kattaqo'rg'onlik nuroniylar ushbu qarorni yuksak ma'naviy ahamiyatga ega tarixiy hujjat sifatida qo'llab-quvvatlaymiz. Tarixiy merosimizni asrab-avaylash, ajdodlar qoldirgan boy qadriyatlarini yosh avlod ongiga singdirish, belgilangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etishga bel bog'laganmiz.

Qamariddin AHMEDOV,
"Nuroni" jamg'armasi
Kattaqo'rg'on tumani
bo'limi raisi.

Nigoh

Qaytayotganimiz chin boʻlsin!

Toʻgʻrisi, bu haqda yozaman, deb anchadan beri oʻylab yurgandim. Lekin baʼzi narsalar haqida qoralash oʻtmishni qoralash bilan tenglashtirilganday tasavvur uygʻotadi va qaysidir maʼnoda kishini gʻash qiladi. Gʻashlikki, oʻz yashab oʻtgan umringni yomonotliq qilib nimaga erishasan, endi buyogʻiga xatolardan xoli yashashga jazm qilgin-u, yoʻlingda davom et, degan ichki iddaolar ham tinchlik bermaydi odamga. Ammo...

SUD BOR, QONUN BOR...

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan baʼzi videolavhalarni koʻrib, yana oʻsha “dard” tinchimni oʻgʻirladi. Toʻy qilayotgan oddiy bir xonadon bekalar kuyovning “toʻqqiz tovogʻi”ga (aksar viloyatlarda kuyov kelinni olib ketishga kelganda unga va kuyov joʻralarga toʻqqiz xil taom va shirinliklar tortiladi) aroq ham tortisha-yotganini koʻrib, yoqa ushlaysan odam.

Yana bir toʻyda Xorazm lazgisiga qariyb yarim-yalangʻoch raqsga tushayotgan ayol va unga qarsak chalib turgan odamlarimizni koʻrib, hayrating ikki karra oshadi.

Maktablarda dars berayotgan oʻqituvchilarning bir-biri bilan jiqqamusht boʻlib, soch yulishayotgani videolari tarqalib ketganidan keyin bu oʻqituvchi oʻquvchisiga qanday tarbiya bershini mumkinligini tushunmay kuzatamiz.

Maktab rahbari goʻyoki adolat izlab, butun xalqqa murojaat qilsa-yu, ortidan oʻzining “ayshlari” namoyish etilgan videolar tarqalib ketga ham yuzsizlarcha chiqishida davom etaversa. Uning ishini sud hal qiladi, adolatli sud kerak bizga, deya hayqirayotgan olomon goʻyoki uning OʻQITUVCHI ekanini unutib qoʻyganday, tuyuladi menga. “Ha, sud bor, qonun bor, ammo shu bilan birga vijdon ham bor” deya koʻpchiligimizga yod boʻlib ketgan bu jumalarni bir paytlar etimiz jimirlab eshitardik. Endi buni vijdonning sariq chaqalik ahamiyati qoldimi, degan maʼnoda, ensamiz qotqancha, tezroq tugata qolsa boʻlmaydimi gapini deya eshitamiz.

Qaysi fikr shov-shuvli boʻlsa, osongina ergashamiz. “Falonchi shunaqa deyapti” deya hech ikkilanmay uning izmiga tushib qolganimizni sezmay oʻtib ketyapmiz. Ijtimoiy tarmoqlarga mukkadon ketayapmizu izohlarni oʻqisangiz, oʻzbek tili qachon shunday ahvolga keldi, deya yigʻlagingiz keladi. Oliy maʼlumotlisidan tortib, oʻrta maktabni zoʻrgʻa bitirayotgani ham oshkora xato bilan yozadi va bundan zigʻircha uyalmaydi.


Bularning hammasi yigʻilib umumiy bir saviyamizni, yanayam ochiqroq aytisak, saviyazligimizni koʻrsatib beradi.

HALI KOʻP QIYNALAMIZ!

Ha, xuddi shunday, hali ancha yillar bunday saviyadan azob chekamiz. Keyingi paytda ijtimoiy tarmoqlarda “bundan oʻn yillar avval ham ahvolimiz bu darajada emasdi, saviya tushib ketgan, taʼlim oʻlgan” kabi sannashlarni eshitib qolamiz. Yashirib nima qildik, hatto ziyolilarimizning oʻzi ham juda ogʻir ahvolda qoldik, deyishadi. Xoʻp, nega, qachondan beri shu ahvolga keldik oʻzi?!

Oʻqituvchilarni koʻcha supurishdan tortib, paxta yigʻim terimida ishlatib, obroʻyini bir pul qilgan kunlardan boshlanmadimi hammasi? Oylik-maoshlarini chaqalik qilib, yaxshi oʻqituvchilarning maktabdan qochishidan boshlanmaganmidi bu savodsizlik?

Taʼlim tizimida goʻyoki yirik sakrashlar amalga oshdi, ammo bori ham yoʻqqa chiqqan yillarni eslang. Havoyi havaslar, toʻkilib turgan maktablar yonida hali hech qanday poydevori yoʻq, oʻqiganga ish yoʻq, ish boʻlsa oylik yoʻq yoʻlga olib boruvchi salobatli kollejlar qurilishiga sarflandi juda katta mablagʻ. Bor taʼlim tizimini avaylab-asrash, uni



sekinlik bilan oʻzgartirish oʻrniga yana katta odimlar tashlandi. Oʻquv darsliklaridan tortib, yana nimalardir oʻzgardi. Lekin arzimagan oylig-u, koʻcha supurishga doimiy jalb etiladigan xodimlardan taʼlimga qanday foyda kelishi hali u paytlar uncha bilinmasdi. Chunki taʼlim tizimida qolgan fidoyilar bor edi.

Oliy taʼlim dargohlariga kirish uchun test tizimi faqat boshlanishida adolatli boʻldi-yu keyin naq “otchopar bozori”ga aylandi. Falon institutning narxi buncha, bunisiniki muncha... Hammasining aniq narx-navosi chiqarildi. Oʻqish ham shunga qarab davom etdi. Aslida, oliy taʼlimdagi ahvol ham oʻrta taʼlimdan qolishmasdi. Ushbu tizim xodimlarining ham obroʻyi tushib ketgan, maoshlarning qisqarishi bilimli oʻqituvchilarning Vatandan ketishi yoki boshqa sohaga oʻzini urishiga sabab boʻldi. Ilmiy ish qilish xarajatlariga mablagʻ topa olmay oʻz tadqiqotlarini bilimi haminqadarlarga pullagan insonlar chetda, pana-pastqamda yurdi. Ular roʻzgʻor tebratishni oʻylashdi, fanga yangilik qilish, mamlakat ijtimoiy hayotiga yangiligi orqali foydasi tegishi haqida oʻylashga ularning holi ham, qurbi ham yetmasdi.

Kitob oʻqish eng nomaʼqul ishday koʻrindi, yoshlardan oʻsha yillari kitob oʻqish haqida soʻray olmasdingiz.

Bugun taʼlimning mana shu tizimini oʻtaganlar qayerlardadir (asosan maktablarda, umuman taʼlim tizimida) ish boshlagan. Ular juda koʻpchilik. Oʻz ustida ishlaganlari bugun yaxshi natijalarga erishib, sohada oʻz oʻrnini topayapti. Ammo besh barmoq bir xil emasda....

Biz bugun mana shu tizimining azobini tortamiz va bu jarayon hali koʻp davom etadi. Kitobsizlikning, taʼlimga nisbatan xiyonatning azobi bizni yana koʻp yillar qiyinashi tabiiy. Chunki taʼlimdagi bu xatolar darhol oʻz natijasini koʻrsatmaydi, oʻqishni bilmagan ota-bobolarimiz bilan suhbat qilsangiz ham bu haqda aytib berishadi.

KITABI YOʻQ KUTUBXONALAR EDI MAQOMIMIZ

Yaqin yillarda taʼlim tizimida kishiga umid beradigan oʻzgarishlarni kuzatib boryapmiz. Lekin eng qizigʻi, bu oʻzgarishlar haqida tahlil qiladigan oʻqituvchilar sanoqilligicha qolyapti. Sabab oʻsha – ming ogʻriqli boʻlmasin, kitob oʻqimagan avlodning bugun turli tizimlarda ish olib borayotganidadir.

Kitob oʻqish va uni ragʻbatlantirish bilan bogʻliq hayotbaxsh mujdalar bundan bir necha yil oldin boshlangani haqida yaxshi bilasiz. Oʻshanda kitob oʻqiydigan bolaga avtomobil sovgʻa qilish ham yoʻlga qoʻyildi hatto. Bu tashabbusga baʼzilar ensasi qotib qaragan boʻlsa-da, aksar ziyolilar xursand boʻldi, quvonch bilan qarshi oldi bu tashabbusni! Axir oʻsha payti bundan boshqa yoʻl yoʻq edi, ish topish, Rossiyaga ketish va oila boqishdan boshqasini oʻylamaydigan hamyurtlarni uchun chin maʼnoda kitobga qaytish davri boshlandi.

Hech esimdan chiqmaydi, kitobxonlik tanloviga qoʻllab-quvvatlash qizcha haqida maqola tayyorlamogʻchi boʻlib, u oʻqigan maktabga bordim. Maktab kutubxonasida uni tasvirga olmoqchi edik. Kutubxonachini ancha qidirishdi va kutubxona eshigi ochilgandagi hayratim hali ham meni tark etmagan. Kitoblarni teriladigan rastalar bir ikkita oʻquv darsliklariyu ilmiy adabiyotlarni aytmasa, deyarli boʻm-boʻsh edi. Keyin bilsak, gʻolib qizning ota-onasi oddiy insonlar boʻlsa ham bolasining oʻqishi uchun tuman markazidagi yagona kitob doʻkonidan kitob sotib olib kelar, baʼzilarini ijraga olib, oʻqib boʻlgach, qaytarib berar ekan.

XULOSA

Maqolada kitob oʻqimaslikning bugungi baʼzi koʻrinishlarinigina bayon qildim, xolos. Aslida oiladagi muammolar, notinchligu, tashvishlar, umuman, hamma sohada buning yaqqol ifodasi koʻzga tashlanadi. Faqat chin dildan kuzatsangiz, tahlil qilsangiz bu farqlarni darhol ilgʻay olasiz.

Toʻgʻri, maqolani oʻqib, oʻquvchilarimiz muallif jamiyatdagi bor muammolarni kitob oʻqimaslikka borib taqabdi-ku, deb oʻylashi mumkin. Shu oʻrinda ommaviy axborot vositalarida juda koʻp tarqaladigan baʼzi raqamlarni aytish joiz edi. Xususan, rivojlangan mamlakatlardagi aholining kitobxonligi bilan bizdagi vaziyat raqamlarda qanchalik farq etishini koʻrsangiz, aslida barcha muammolar kitobsizlikka borib taqalishini yaqqolroq his qilassiz. Lekin bu raqamlarni keltirishni joiz deb topmadim. Chunki mamlakatimizda ham yaqin yillarda kitobxonlik darajasi keskin koʻtarilishidan umidim bor va oʻshanda shu raqamlarni birinchilardan boʻlib aytishni koʻnglimga tugdim.

Gulruh MOʻMINOVA,
“Zarafshon” muxbiri.

Yoshlar ishlari agentligi huzurida Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamgʻarmasi tashkil etiladi



Oʻshanda hali kitobga sadoqatli odamlarimiz koʻp, deya ishongandim. Bu ishonch mamlakat miqyosida, amaliy harakatlar ila quloqch yozdi.

Aslida kitobxonlik “oʻlimi”ga sababni aynan oʻzi boru, kitobi yoʻq kutubxonalardan izlashimiz kerak edi. Va bu sabablar topildi, tahlil etildi, unga qarshi choralar koʻrildi.

Keyingi yillarda bu masalada natijalarni aytish ham shartmas, hammasini koʻrib turibmiz. Har bir tumanda zamonaviy kutubxonalar qad rostladi, kutubxonalar badiiy adabiyotlar bilan boyitildi. Haliyam bu ishlar davom etyapti.

KITOB OʻQIGAN XODIMGA MUKOFOT!

Yil boshida mamlakatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qarorni oʻqib, yuqoridagi “kitobxoʻrliliklar” toʻxtab qolmasligi, tizimli davom etayotganidan koʻnglimiz xotirjam tortdi.

“Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi oʻrtasida kitob oʻqishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Prezident qarori avvalidayoq asosiy maqsad aytilgan: qarorni qabul qilishdan koʻzlangan asosiy maqsad 2026 – 2030-yillarda aholining kitobxonlik darajasi (bir odam oʻqiydigan kitob soni)ni yiliga oʻrtacha 10 ta kitobga yetkazish etib belgilandi.

Qarorga koʻra, Yoshlar ishlari agentligi huzurida Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamgʻarmasi tashkil etiladi va uning vasiylik kengashi tarkibi tasdiqlandi.

Jamgʻarma mablagʻlari quyidagi tadbirlarni moliyalashtirish uchun yoʻnaltiriladi:
tanlov orqali yosh yozuvchilar uchun grantlar ajratish va asarlarini nashr etish, bolalar adabiyoti yoʻnalishidagi loyihalarni qoʻllab-quvvatlash;

tanlov orqali isteʼdodli mualliflarni aniqlash va ularga ijod qilish uchun sharoit yaratish maqsadida 1 yilgacha BHMning 50 baravari miqdorida har oy haq toʻlash;

eng sara xorijiy adabiyotlarni oʻzbek tiliga va milliy adabiyotlarni xorijiy tillarga tarjima qilishda nashrga tayyorlash va chop etish xarajatlarning 50 foizi hamda mualliflik huquqi uchun xarajatlarning 80 foizini qoplash;
vasiylik kengashi aʼzolariga har chorakda BHMning 50 baravarigacha miqdorda mukofot toʻlash.

Qarorga koʻra, 2026-yil 1-fevraldan:

aholi, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida kitobxonlikni targʻib qilish boʻyicha “Kitob – maʼrifat manbai” dasturi amalga oshiriladi;
davlat organlarining kitob va kitobxonlik haqidagi reklamalari ijtimoiy axborot (reklama) sifatida tan olinadi;
umumtaʼlim muassasalarida “Jadidlar izidan” kitobxonlik klublari tashkil etiladi;
klub aʼzolari oʻrtasida kitob tahliliga bagʻishlangan debatlar oʻtkaziladi;
maktablarda klub aʼzolariga yiliga kamida 20 ta kitob oʻqitib boriladi;
har chorakda tuman(shahar) kesimida eng faol “Jadidlar izidan” kitobxonlik klublari aʼzolari ragʻbatlantiriladi.

2026-yil 1-aprelga qadar oʻzida va tizimidagi tashkilotlarda “Kitob burchagi” tashkil etiladi va xodimlar uchun har oyda “Kitob oʻqish soati” yoʻlga qoʻyiladi;

kitobxonlik boʻyicha ichki reyting tizimi joriy etiladi;
tanlov asosida eng koʻp kitob oʻqigan xodimga 1 oylik ish haqi miqdorida pul mukofoti beriladi.

Shuningdek, eng koʻp kitob oʻqigan top-100 talikka birmadigan oʻquvchi va talabalarning har biriga BHMning 25 baravari miqdorida pul mukofoti beriladi.

Mamlakatimizda dezinfeksiya uchun hali ham xavfli kimyoviy moddalar qoʻllanilayotgan bir paytda, dunyoning aksar davlatlari ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarga oʻtmoqda. Zamonaviy akkreditatsiyadan oʻtgan laboratoriyaning yoʻqligi esa mamlakatimiz aholisining salomatligini himoyalashga toʻsqinlik qilmoqda, shu bilan birga, millionlab dollarlik eksport daromadidan mahrum etyapti. Xalqaro standartlarga toʻla javob bermaydigan mahsulotlarimiz chegaradan qaytmogʻda, ammo mahalliy muhandislar taklif etayotgan, amalda samarasi isbotlangan va yangi biologik xavfsizlik tizimining asosiga aylanishi mumkin boʻlgan yechim allaqachon mavjud.

Mahsulotlarimiz Yevropaga qimmat narxda sotiladi

lekin nega foydani biz koʻrmaymiz?



COVID-19 pandemiyasidan keyin butun dunyoda biologik xavfsizlik masalasiga eʼtibor kuchaydi, Oʻzbekiston ham mavjud yondashuvlarni qayta koʻrib chiqishiga toʻgʻri keldi.

Muhim muammolardan biri – toksinlar miqdorini, bakterial va virusli ifloslanish darajasini, kimyoviy dezinfektantlar qoldiqlarini xalqaro mezonlar asosida aniq oʻlchay oladigan laboratoriya mavjud emas.

Shu oʻrinda viloyatimizdagi “Yevrolyuks” korxonasi tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompaniya Markaziy Osiyoda birinchi boʻlib ozonogeneratorlarni – Germaniya, Xitoy, Italiya, Turkiya va boshqa davlatlarda keng qoʻllaniladigan ekologik toza dezinfeksiya usuliga asoslangan uskunalarini sanoat miqyosida ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻydi. Korxona SES, Sogʻliqni saqlash vazirligi, farmqoʻmitalar va «Oʻzstan-dart»ni ham oʻz ichiga olgan respublika va viloyat tashkilotlari bilan barcha zarur kelishuvlardan oʻtgan. Bir necha yil davomida oʻtkazilgan yuzlab sinovlar ozonning binolardagi bakteriya va viruslarni toʻliq yoʻq qilishi mumkinligini isbotladi. Shu bois ozonatorlar qator shifoxonalar, bogʻcha, maktab, maʼmuriy binolar, omborlar, sabzavot quritish korxonalarini va odamlar koʻp toʻplanadigan joylarda qoʻllanilmoqda.

Masalan, Bulungʻur tumani hokimiyatida katta zaldagi havoni Zomin togʻlaridagi kabi musaffo holatga keltirish uchun bir soat ozonlash yetarli. 250-300 kishi bir necha soat davomida oʻtiradigan bunday xonalarda bakteriya almashinuvi juda yuqori boʻladi va har bir odam boshqalardan “olgan” mikroblarni uyiga olib ketmaydi.

Ozon faqat havoni dezinfeksiya qilmaydi, balki kimyoviy moddalar yetib bormaydigan joylarga ham kirib boradi. Ozon yomon hidlarni yoʻq qiladi, hashoratlar, kemiruvchilar va zararkunandalarga qarshi samarali. Shu bois, ozonlash omborlar va qayta ishlash korxonalari uchun ayni muddao va katta hajmlarni zaharli moddalarsiz tozalash imkonini beradi. Mamlakatda hozir ham xlor, brom, formalin kabi ozonni yoʻq qiluvchi moddalar keng

qoʻllaniladi. Ular tuproqda oʻnlab yillar davomida toʻplanib, ekologiyaga zarar yetkazadi, havoni ifloslaydi va odam salomatligiga xavf soladi. Masalan, bir parranda fabrikasini olaylik, 5000 kub metrlik binoni dezinfeksiya qilish uchun 120 litr formalin sarflanadi. Biz oʻrgan-gan fermada 17 ta shunday korpus bor, boqish davriyligi 18 kun. Natijada bitta xoʻjalikning oʻzi yiliga 61 tonna formalinni havo va tuproqqa chiqaradi. Butun mamlakat boʻylab minglab shunday obyektlar bor. Bu esa Oʻzbekiston imzolagan ozonni yoʻq qiluvchi moddalarni qisqartirishga oid xalqaro konvensiyalarga zid.

Mamlakatimizda yetishtirilgan sabzavot va mevalar koʻpincha nitrit va toksinlar miqdorining oshgani, shuningdek, xalqaro tan olingan laboratoriya hujjatlariga mavjud emasligi sababli chegaradan qaytarib yuboriladi. Eng qizigʻi, boshqa davlatlar bizning mahsulotlarimizni sotib olib, oʻzlarida ozonogeneratorlar asosida qayta ishlash, Yevropaga bir necha baravar qimmat narxda eksport qilmoqda. Biz esa sifatni isbotlay olmaganimiz uchun foydadan mahrum boʻlyapmiz. Shu bois zamonaviy toksikologik va bakteriologik laboratoriya yaratish texnik emas, balki strategik vazifadir.

Hozirda loyiha Ekologiya qoʻmitasi huzuridagi ilmiy-tadqiqot institutlari va Samarqandning 12 ta oliy taʼlim muassasasi bilan muhokama qilinmoqda. Gap barcha turdagi toksinlar, patogenlar va qoldiq moddalarning miqdorini Yevropa standartlari darajasida aniq oʻlchay oladigan va uning natijalari xalqaro bozorda tan olinadigan laboratoriya haqida ketmoqda. Bu aholi salomatligini himoya qilish, ekologiyani yaxshilash va mamlakatning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Indallosini aytganda, ozon agressiv kimyoviy moddalardan voz kechish, havo sifatini yaxshilash, bakteriya va viruslarning tarqalishini toʻxtatish, qolaversa, moʻgʻor va zararli moddalarning suv, tuproq va uy muhitiga kirib kelishini cheklashga yordam beradi. Bu – inson, iqtisod va ekologiya uchun xavfsiz kelajak sari qadam.

Toʻraxon HOSHIKIMOV, xalqaro ekspert-ekolog.

► Prezident farmoniga ko‘ra

Davlat xaridlarida “taklif so‘rovi”
tartibi joriy etiladi

2025-yil 26-dekabrda Prezidentimizning “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon davlat xaridlari tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi korrupsiyani kamaytirish, budjet mablag‘laridan samarali foydalanish va raqobatni kuchaytirishdan iborat.

Farmonga muvofiq, davlat xaridlari jarayonlari to‘liq raqamlashtirildi va sun‘iy intellekt texnologiyalari keng joriy etiladi. Jumladan, xarid qilinayotgan tovar, ish va xizmatlarning o‘rtacha bozor narxi avtomatik hisoblanadi. Agar taklif etilgan narx bozor narxidan keskin farq qilsa, bunday holatlar xavfli, deb baholanib, alohida nazoratga olinadi.

Davlat xaridlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar ulushi keskin kamaytiriladi, xaridlar asosan ochiq va raqobatli usullar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yangi “taklif so‘rovi” tartibi joriy etilib, ko‘proq tadbirkorlarning ishtirok etishi ta’minlanadi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga ham alohida e’tibor qaratiladi. Xarid rejalari mahalliy korxonalarga avtomatik yetkaziladi, maxsus mahalliy auktsion savdolari tashkil etiladi hamda mahalliy lashtirish darajasi yuqori bo‘lgan ishlab chiqaruvchilarga bo‘nak to‘lovlari berish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, davlat xaridlari natijalari ochiq e’lon qilinadi, jamoatchilik va davlat nazorati kuchaytiriladi. Xarid jarayonlari uchun mas’ul bo‘lgan rahbarlar va mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligi belgilanadi.

Umuman olganda, ushbu farmon davlat xaridlarini ochiq, adolatli va samarali tizimga aylantirish, budjet mablag‘larini tejash hamda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Davlat xaridlarini isloh qilish bo‘yicha yangi qaror tahririda aniq vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan. Ya’ni, davlat xaridlari tizimi korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi. Davlat xaridlarida sun‘iy intellektga asoslangan raqamli ekotizim joriy etiladi.

Xarid narxleri bozor bahosi bilan avtomatik solishtiriladi, og‘ishlar xavf sifatida baholanadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar keskin cheklanadi, raqobat ustuvor bo‘ladi. Yangi “taklif so‘rovi” xarid tartibi joriy etiladi. Elektron do‘kon va auktsionlar orqali xaridlar yanada ochiq va qulay bo‘ladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar:

* xarid rejalari haqida avtomatik xabardor qilinadi;

* maxsus mahalliy auktsionlarda ishtirok etadi;

* mahalliy lashtirish darajasiga qarab bo‘nak oladi.

* davlat xaridlari natijalari to‘liq ochiq lanadi, jamoatchilik nazorati kuchayadi.

* xarid jarayonlari uchun mas’ul rahbarlar shaxsiy javobgarlikka ega bo‘ladi.

Elyor USMONOV,
viloyat raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi.

► Yaxshilar yodi

Hayotda kishilar bo‘ladiki, ularning umr yo‘li atrofdagilar uchun ibrat maktabiga aylanadi. Shunday fidoyi, ilmga sadoqatli insonlardan biri Abdinazar Pardayev edi. Ustoz hayot bo‘lganida bugun 75 yoshga to‘lgan bo‘lardir.

HAYOTI – IBRAT,
ILMI – HIKMAT

Ustoz Abdinazar Pardayevga shunday
tariflar berish mumkin



Abdinazar Pardayev (chapdan uchinchi) shogirdlari davrasida

Avval boshdan aytib o‘tish shart, u kishi uchun ilm kasb emas, balki hayot mazmuni, vijdon masalasi edi. Yoshligidan izlanish, mutolaa va mehnatni o‘zining kundalik hayot tarziga aylantirgan domla yillar davomida ilm yo‘lida tinimsiz harakat qildi. O‘qitish, tadqiqot olib borish, shogird tarbiyalash bilan birga, o‘z ustida ishlashni hech qachon to‘xtatmadi.

Zotan, 40 yoshida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi — tasodifiy yutuq emas, balki sabr-toqat va qat’iyatning natijasidir. Bu yutuq ortida kechalari uxlamay qilingan mehnat, cheksiz izlanishlar va ilmga bo‘lgan samimiy muhabbat mujassam.

Domla nafaqat yetuk olim, balki yuksak insoniy fazilatlariga ega ustoz ham edi. Kamtarligi, samimiyligi, talabalarga bo‘lgan mehri va adolati bilan ko‘pchilikning qalbidan joy oldi. U kishi har doim “ilm — halollik” deb ta’kidlar, shogirdlarini ham shu ruhda tarbiyalardi.

Bugun Abdinazar Pardayevni xotirlar ekanmiz uning ilmiy merosi, shogirdlar qalbidagi qoldirgan ezu izi va hayotga bo‘lgan ibratli munosabati abadiy ekanini his qilamiz.

- Ustoz faqat olim emas, qalblarga ishonch ulashgan inson edi, - deydi Ilhom Mamasoliyev. - Talabalar uning darsiga shunchaki baho uchun emas, ma’naviy ozuqa olish uchun kelardi. U har bir yoshda imkoniyat ko‘rar, har bir shogirdga umid bilan qarardi.

Bugun ustozni xotirlar ekanmiz, uning ovozi, maslahati, samimiy tabassumi ko‘z oldimizda gavdalanadi. Ustozning ilmiy asarlari javonlarda qolmagan, shogirdlari turli sohalarda uning ishlarini davom ettirmoqda. Qo‘shrabot tumanining Jo‘sh

qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgan Abdinazar Pardayev nafaqat O‘zbekiston, balki butun MDH davlatlarida e’tirof etilgan tilshunos olim edi.

Abu Nasr Forobiy nomidagi Qo‘zog‘iston Milliy universiteti qoshidagi Ilmiy kengash, MDH davlatlari uchun rus tilidan yangi darsliklar yaratish bo‘yicha Xalqaro ekspert komissiyasining a’zosi ekanligi, rus tili va adabiyoti o‘qituvchilari xalqaro assotsiatsiyasiga a’zo etib saylanganligi domlanning salohiyatiga yorqin misol.

Muvaffaqiyatli erkak deganda, odatda, katta yutuqlarga erishgan, o‘z ishida barqaror, oilasi va atrofdagilar uchun tayanch bo‘la olgan shaxs tushuniladi. Shu ma’noda Abdinazar Pardayevning muvaffaqiyatlari zaminida oqila ayolning mehnati, sabri va qo‘llab-quvvatlashi yotganini alohida aytish o‘rinli. Zotan, Xolbuvi Ibragimova o‘zining hoyu havaslari ortidan yugurmadi. Avvalo, turmush o‘rtog‘ini rozi qilish, turmushni birinchi o‘ringa qo‘yishga intildi. Pirovardida fizika-matematika fanlari nomzodi sifatida Samarqand davlat universitetida talabarga saboq berishga ham ulgirdi.

Bu juftlik besh farzand — uch o‘g‘il va ikki qizni oq yuvib, oq tarab elga qo‘shdi. Ular ilm bilan band bo‘lsa-da, farzandlari tarbiyasini birinchi o‘ringa qo‘yar, ularga halollik, mehnatsevarlik va bilimga hurmat ruhini singdirishga intildirdi. Natijada o‘g‘il-qizlari el koriga yaraydigan, muvaffaqiyatli kishilar bo‘lishdi.

Abdinazar Pardayev kamtarligi, samimiyligi, ilmga baxt ishlangan umri biz uchun ibrat va ehtirom manbaidir. **Dilshod MUSINOV,**
Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Bugun tadbirkorlar uchun davlat organlari bilan ochiq muloqot qilish, o‘z muammolarini tez va oson yetkazish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu yo‘nalishda samarali platformalardan biri — “Tadbirkorlar virtual ofisi” axborot portali hisoblanadi.

“Tadbirkorlar
virtual ofisi”

tadbirkor uchun tezkor va samarali yordam manbai

Ushbu platforma orqali tadbirkorlar kechayu kunduz murojaat qilishlari va muammolari yechimi ustidan nazorat o‘rnatilishini ko‘rishlari mumkin. Portal tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilayotgan masalalarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2025-yilda viloyatimiz tadbirkorlaridan portal orqali 776 ta murojaat kelib tushgan va ularda 806 ta masala ko‘tarilgan. Murojaatlarning asosiy qismi soliq, infratuzilma, bank-kredit, yer va kadastr sohalari bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu masalalarning ijobiy hal etilishi natijasida tadbirkorlarga 2,5 milliard so‘mdan ortiq kredit ajratilishiga ko‘maklashildi, qariyb

2,9 milliard so‘m mablag‘ undirib berildi. 1,6 milliard so‘mdan ziyod soliq qarzlari hisobdan chiqarildi. Shuningdek, noqonuniy hisoblangan jarimalar bekor qilinib, tadbirkorlarning huquqlari tiklangan.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayoni



Biznes-ombudsman tomonidan doimiy nazorat qilinadi va belgilangan mudatlarga rioya etmagan mansabdor shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko‘riladi.

Tadbirkorlar o‘z faoliyati bilan bog‘liq masalalarda muammoga duch kelsa yoki takliflari bo‘lsa, business.gov.uz sayti yoki 1100 qisqa raqami orqali murojaat qilishlari mumkin.

Abrorjon IBRAGIMOV,
Prezident huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil devonining viloyat shu’basi yetakchi inspektori.

«Kattaqo‘rg‘on»
futbol klubi Pro ligada
ishtirok etadi

Ikki yil avval mazkur klub hududiy ikkinchi ligada muvaffaqiyatli ishtirok etgan bo‘lsa, o‘tgan mavsum birinchi ligada yarim finalga qadar yetib keldi. 2025-yil dekabr oyidan boshlab klub Pro liga talablarini bajarishga kirishdi. Liga tomonidan belgilangan talablar bosqichma-bosqich bajarilib, barcha hujjatlar to‘liq rasmiylashtirildi.

O‘zbekiston professional futbol ligasi xabariga ko‘ra, 2026-yildan boshlab Kattaqo‘rg‘on shahridagi stadiona «Kattaqo‘rg‘on» U-19 jamoasi uy uchrashuvlarini o‘tkazishi rejalashtirilgan. Payshanba shaharchasida joylashgan stadion esa to‘liq Pro liga talablari asosida tayyorlanadi. Ayni kunlarda maydonni yangilash ishlari olib borilmoqda. Drenaj va sug‘orish tizimlarini zamonaviy holatga keltirish, gibrid mayso yotqizish va uni sinovdan o‘tkazish ishlari may oyiga qadar davom etishi ko‘zda tutilgan. Shu maqsadda klub ta’sischi 4,5 milliard so‘mlik investitsiya kiritish bo‘yicha tegishli kompaniya bilan shartnoma imzolagan.

Bundan tashqari, Payshanba shaharchasidagi stadion tribunolari va ular ostida joylashgan texnik hudud to‘liq ta’mirga muhtoj. Klub ushbu obyektlarni minimal talablar darajasiga keltirish uchun 5,7 milliard so‘m sarflashni rejalashtirgan. Maydon, tribunalalar va texnik hudud to‘liq rekonstruksiya qilinguniga qadar «Kattaqo‘rg‘on» futbol klubi o‘z uy o‘yinlarini Samarqand shahridagi “Dinamo” stadionida o‘tkazadi.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 60-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasida marhum Amirkulov Xushvakga (2013-yil 27-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 50-uy, 34-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Mirzayeva Matlabga (2013-yil 16-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Mamatov Daminga (2007-yil 14-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasida marhum Ulugov Buron Kuchkorovichga (2025-yil 23-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xamidov Norbek Komil o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 48-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Berdiyeva Barno Tilavovnaga (2021-yil 8-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Qaxarov Shakarboyga (2024-yil 27-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Elmanov Xaxramon Axmatovichga (2024-yil 11-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk

DA‘VOLAR BO‘LSA...

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Bobokulov Ximmatqulga (2012-yil 4-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko‘chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirov Jumayev Tolibovich notarial idorasida marhum Jumayev Shamsiga (2021-yil 14-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko‘chasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Toshpulotov Abdug‘afurga (2024-yil 8-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebunisot ko‘chasi, 4-“A” uy.

Past Darg‘om tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hamidov



► Mulohaza uchun mavzu

HAYOT ga MUNOSABATINGIZ BORMI

Mabodo, bugunning odamidan «ahvolingiz qalay?», deb so'rasangiz, uning javoblarini o'zimizcha tasavvur qilaylik: «shukr, ko'p qatorimiz», «nima qilay, peshonada bor ekan-da», «o'rgildim bu zamoningdan», «boylarni ham yig'latadigan davr ekan», «ojizlik qursin» va hakazo...

Bu gaplarni ko'p bora eshitgansiz, to'g'rimi, va o'zingiz ham qaysi birinidir doimo takrorlab yurasiz. Bu – bizning o'z hayotimizga munosabatimiz. O'z hayotimizga munosabat bu – jamiyatimizga munosabatimiz-da! Ba'zi bir gapdonlar qanaqa fikr bildirishingizdan qat'i nazar, chuqurroq mulohaza yuritsangiz, «qo'ying, siyosatga aralashmang», deydi. Darvoqe...

«Siyosat» so'zi arab tilidan olingan bo'lib, lug'atlarda uning uch xil ma'nosi berilgan. Birinchisi, tabiiyki, davlat boshqaruvi. Ikkinchisi, munosabatlardagi makr yoki hiyla. Uchinchisi esa dag'dag'a, degan ma'nosi

bildiradi. Shuning uchun siyosatga aralashish doimo ijobiy baholanmagan. Allomalarimizning «Quyoshga yaqin borma – kuyasan, uzoqlashma – taftisiz qolasan» degani ham bekorga aytilmagan.

Ammo siyosatning o'z qonun-qoidalarini bor. Kishi hayotga, biror voqeaga munosabat bildirishi uchun albatta muayyan tasavvurga, ma'lumot va bilimga ega bo'lishi kerak. Misol uchun, dunyo bo'yicha saylovlarda aholining faqat 18 yoshdan oshgan qismi ishtirok etadi. Rahbarlikka saylanish uchun ham yoshlar belgilangan. Yoki biror sohaga ishga kirmoqchi bo'lsangiz, diplom yoki malaka

talab qilinadi. Demak, biz siyosatga aralashish uchun ham uning tartib-tamoyillaridan, boshlang'ich ilmdan xabardor bo'lishimiz lozim. Demoqchimanki, hayotda kimningdir pand yeyishi, ozor chekishi yoki aksincha, boyib ketishi butun bir siyosatni belgilamaydi. Siyosat aslida aholining mavjud muhitdan o'z ehtiyojini qanchalik qondirishi bilan belgilanadi. Bu umuminsoniy g'oya bizda inson qadri deb ataladi. Inson qadri faqat unga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikka emas, balki uning jamiyatga munosabatida ham ko'zga tashlanishi kerak.

Bugun biz ijtimoiy tarmoqlarda juda ko'p qarama-qarshi fikrlarga duch kelyapmiz. Hayot haqida har kim o'z dardini aytyapti. Bu yaxshi gap. Gapirishni o'rgandikmi, demak, biz munosabatimizni ayta olamiz. Ammo ana shu munosabat zamirida «Azaga kelgan o'z dardini aytib yig'laydi» qabilida bo'lmisligi kerak. Negaki, siyosat voqea-hodisaga real qarashni, unga arzigulik takliflar bildirishni talab qiladi.

Aslida siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari odamlarda siyosiy tafakkurning shakllanishiga, rivojlanishiga xizmat qilmog'i kerak, chunki ularning safidagi kishilar o'z hayotiga, siyosiy partiya qarashlariga va nihoyat davlat siyosatiga munosabatni o'rganadi. Tahlillar orqali u yoki bu harakatni, u yoki bu nomzodni qo'llab-quvvatlaydi.

Siyosiy munosabatlarni shakllantirishda qonunlar ham muhim ahamiyatga ega. Ulardan biz munosabatlar tartibini, chegarasini bilamiz. Shuning uchun ham xalqaro hamjamiyatda ham munosabat bildirish yuzasidan normalar juda ko'p va atroflicha shartlanadi.


Jamiyatdan ajralmaslikning yo'li jamiyatga qo'shilishdir. Shunday ekan, mamlakatimizda fikr bildirishga imkon berilganini hisobga olib, hayotimizga bog'liq barcha jarayonlarni o'rganib, tahlil qilib borish odatga aylansin. Har birimiz o'z so'zimizni qonun doirasida, teran takliflar bilan aytishni o'rganaylik. Chunki ana shu hislat bizning jamiyatdagi qadrimizni belgilaydi.

Farmon TOSHEV.

JADIDCHILIK harakati va Saidrizo Alizoda:

milliy uyg'onish va ma'naviy
yangilanish manbalari

Amerikada chop etiladigan “American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education” jurnalida Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi Ulug'bek Nazarovning Saidrizo Alizoda haqida shu nomdagi maqolasi chop etildi. Quyida ushbu maqolani qisqartirilgan holda e'tiboringizga havola qilamiz.



Samarqand jadidchilik harakatining yorqin namoyandalardan biri bo'lgan Saidrizo Alizoda o'z umrini xalqni ilm-ma'rifat nuri bilan yo'g'rilgan holda tarbiyalashga, milliy o'zlikni anglashga chorlashga bag'ishlagan fidoyi ma'rifatparvar edi.

Alizodaning serqirra tarjima faoliyati nafaqat jahon adabiyoti durdonalarini mahalliy o'quvchilarga yetkazishga, balki Sharqning mumtoz asarlarini rus tiliga tarjima qilish orqali G'arb jamoatchiligini Sharq adabiy-falsafiy merosi bilan tanishtirishga ham qaratilgan edi. U adabiyot, tilshunoslik va madaniyat sohasidagi faoliyat yuritir ekan, tarjima ishini oddiy lingvistik jarayon emas, balki madaniyatlararo muloqot, tafakkurlar chorrahasidagi uzviy aloqadorlik sifatida baholagan.

Manbalarda yozilishicha, 1906-yilda Saidrizo o'z maktabini ochishga qaror qiladi va rusiyabon aholi uchun o'zbek va tojik tillari kurslarini tashkil qiladi. Shu bilan birga u o'z davrining peshqadam va taniqli kishilaridan edi. Albatta, Saidrizo ham «so'zlovchi shaxs» sifatida o'z davr nuqtai nazaridan kelib chiqib, hodisalar, voqealar, harakatlarning shunchaki tavsifini ko'ra bila turib jo'ngina bir hodisa sifatida qaramaydi, ongli shaxs sifatida o'zining jamiyatdagi mavqeidan kelib chiqib, ma'rifiy nutqini baralla ayta oladi.

Saidrizo Alizoda nafaqat adabiyot va tarjimashunoslik, balki musiqiy madaniyatni ham chuqur anglagan, uning estetik va tarbiyaviy kuchini yuqori baholagan ziyoli edi. U musiqani xalq ma'naviyatining ajralmas bir bo'lagi, milliy o'zlikni ifodalovchi estetik shakl sifatida qabul qilgan. Ayniqsa, u musiqaning inson ruhiyatiga, tafakkuriga va tarbiyasiga ijobiy ta'sirini chuqur anglab, uni ma'rifiy vosita sifatida qadrlagan.

Manbalarga ko'ra, 1913-yilda Alizoda Uzeir Gajibekovga xat bilan murojaat qilib, undan O'zbekistonda, ko'p sonli ozarbayjonlar istiqomat qiladigan Samarqandda shu millat musiqasini ommalashtirishga yordam berishni so'ragan. Bungacha u Bokuga, M.Sobirnikiga borganida U.Gajibekov bilan bir necha bor uchrashgan. Gajibekov uning iltimosini bajarib, Samarqandga bir guruh musiqachilarni jo'natgan. Ularning yordamida Saidrizo Alizoda Samarqandda U.Gajibekovning “Unisi bo'lmasa, bunisi”, “Arshin mol olon” musiqali komediyalarini va boshqa asarlarni sahnalashtirgan. Keyinchalik tojik tilida J.Molerning “Zo'raki tabib” asarini sahnaga olib chiqqan. U musiqani shunchaki madaniyat elementi emas, balki milliy o'zlikni anglash, estetik tarbiya va ma'naviy uyg'onish vositasi sifatida tushungan. Bu nuqtai nazar Alizodaning jamiyatni har tomonlama yetuklashtirishga bo'lgan yondashuvida muhim o'rin egallaydi.

Saidrizo Alizoda o'z publitsistik faoliyatida vatanparvarlik g'oyasini faqat tuyg'u darajasida emas, balki ijtimoiy ongni uyg'otuvchi, milliy o'zlikni shakllantiruvchi g'oyaviy kuch sifatida targ'ib qilgan. Uning “Turkiston – bizning Vatanimiz” nomli maqolasida ifodalangan fikrlar bunga yaqqol dalildir. Alizoda ushbu maqolada o'zining ona yurtga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini chuqur his-tuyg'u va g'oyaviy qat'iyat bilan bayon etadi. U quyidagi chaqiriq orqali o'quvchilar qalbida vatan dardiga befarq qolmaslik, zulm va istibdodga qarshi kurash g'oyalarini uyg'otishga intiladi: “Bizning Vatanimiz – taqdiri zulmkor chor hukumati qo'lida bo'lganida, Vatanimiz nomusi o'zgalarning qonli changalida azob tortganida biz qanday jim turamiz?!”.

Bu chaqiriq Alizodaning publitsistik tilida faqat siyosiy bayon emas, balki ruhiy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash va fidoyilik ruhida tarbiya berish usuli sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, “Shu'lai inqilob” muqaddas burch sifatida talqin qiladi. U Vatan bag'rida yashab, uning ne'matlaridan bahramand bo'lish, ammo unga sodiq va g'ururli farzand bo'lolmaslikni insoniy va axloqiy nuqson sifatida qoralaydi: “Shu yerning ob-havosidan bahramand bo'lib kamol topsang-u, uning sharafini himoya qiluvchi nomusli va sodiq farzand bo'lolmasang...”.

Saidrizo Alizoda millat istiqbolini faqat tashqi siyosiy omillar, ya'ni mustaqillik, erkinlik va ozodlik bilan bog'lash bilan kifoyalanmagan, u bu tushunchalarning mohiyatini chuqur falsafiy nuqtai nazardan anglab, ularni ichki ma'naviy yangilanish bilan uzviy bog'liq holda talqin etgan. Uning tafakkurida haqiqiy ozodlik, bu, avvalo, tafakkur ozodligi, ongning uyg'onishi va insonning o'zligini anglash jarayoni edi.

Alizoda millat taraqqiyotini g'oyaviy jihatdan “taqdir emas, tanlov” deb bilgan. Ya'ni, xalqning kelajagi tashqi kuchlar emas, ichki intilish, bilim, tafakkur va ma'naviy uyg'onish orqali belgilanishi kerak. U jamiyatning rivojlanishini deterministik (oldindan belgilangan) emas, balki inson onginging o'zgaruvchanligi va shakllanishiga asoslangan irodaviy jarayon sifatida ko'rgan.

Boshqa davlatlarning ta'lim tizimini o'rganib, ularni falsafiy tajriba maydoni sifatida tahlil qilgan Alizoda uchun ta'lim — bu shunchaki bilim berish vositasi emas, balki insonni inson qiluvchi, uni tarixiy subyektga aylantiruvchi g'oyaviy kuch edi. U ta'limni jamiyatning o'zini anglash vositasi sifatida ko'rgan: bu anglash milliy o'zlikni shakllantirish, ijtimoiy ongni uyg'otish va o'z taraqqiyot yo'lini mustaqil tanlash imkonini beradi.

Shu bois Saidrizo Alizodaning qarashlarida mustaqillik, bu siyosiy maqom emas, balki ong holati, erkinlik esa tashqi qobiq emas, balki ichki mazmundir. U millat taraqqiyotini nafaqat siyosiy strukturaviy o'zgarishlar orqali, balki ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy salohiyatning uyg'onishi orqaligina to'laqonli amalga oshirishni ta'kidlagan. Bu esa uni o'z davrining nafaqat ma'rifatparvari, balki chuqur falsafiy dunyoqarashga ega g'oyaviy mutafakkiri sifatida namoyon qiladi.

Ulug'bek NAZAROV,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi.

Ta'zir

► Turmush chorraxalarida



- Salom Karim, kuttirib qo'yingiz-ku, jo'ra, - Salim gina qilgan bo'lib, Karim bilan tumshug'ini urishtirib ko'rishgan bo'ldi.

- Ha, yaxshiman jo'ra, - Karim xo'rsindi. - Otamning ishga ketishini poylab, kechikib qoldim. Yana o'sha gap, ko'ziga ko'ringunimcha dashnom: “Sen odam bo'lmading, na o'qishni eplading, na ishni, ertadan kechgacha allaqayerlarda sanqib yurasan”. Boshim qotdi, ishlay desam na hunarim bor, na xafsalam, o'tirib jaraq-jaraq pul topsam, ostimda mashina bo'lsa, deymen. Qora ishga tobim yo'q. Yallo qilib yurgim keladi.

- Qo'y, xafa bo'lma jo'ra, - Salim tasalli berdi. - Biznikida ham shu g'avgo, yaxshi o'qiganimizda biror oliygohga kirib, bu malomatlardan qutularmidik. Yo'lkiraga pul topib, biror chet mamlakatga borib ishlasak, bo'larmidi? Otamga shunday desam, «o'qi, ishlab pul top, shu yerda o'zini eplolmagan, chetda yolchitarmidi?» deya yana tanbeh beradi.

Ha, yur parkka borib bir aylanib ko'ngil yozib kelaylik, keyin bir gap bo'lar, - Salim Karimni qo'tlitgan oldi.

- Cho'ntakda bir tiyin yo'q, sayrga balo bormi? - Karim e'tiroz bildirdi.

- Mardikor bozorga borsak-chi, biror yumush topilib qolar.

- Easing joyidami? - Salim e'tiroz bildirdi. - Bitta mix qoqish, bir ketmon yer chopishni eplolmaymiz-u, mardikor bozorda nima bor? Puling bo'lmasa, mana menda bor, enam otamdan yashirib, nafaqa pulidan berdi. Buguncha yetadi, ertaga biror gap bo'lar...

Karim bilan Salim parkda ancha sanqib yurishdi.

- Qara, qara! - Salim Karimni yelkasi bilan turtib, yonidan o'tib borayotgan qizga imo qildi. - Zo'r-a! Oh, oh, ana qaddi-qomat, ana tamanno.

- Ha, chakki emas! - Karim qizga nazar tashladi. - Yaxshi qiz, shoshib qayerga boryapsiz? Bir zum to'xtab, biz

bechoralarga bir boqing?...

Sal oldinda borayotgan qiz Salim bilan Karimga qaradi. Chindan ham u go'zal edi.

- Menga gapiryapsizlarmi?

- Ha, sizga-da jonidan, boshqa kimga bo'lardi.

Shundan keyin nima bo'lganini yigitlar anglamay qolishdi. Hammasi bir zumda sodir bo'ldi. Sal nari-da o'rindiqda hassasiga tayanib dam olib o'tirgan Hasan ota «iya», degan ovozni eshitdi. Keyin havoda muallaq aylangan qizni va yerda cho'zilib yotgan ikki yigitni ko'rdi. Salim jag'ini, Karim qornini ushlab o'zlariga kelganda qiz ancha narida xotirjam ketib borardi.

- Salim, nima bo'ldi? - dedi bukhayib qornini ushlagan Karim.

- Karatechi qiz ekan, - dedi Salim jag'ini ushlab, qiz oyog'i bilan zarba berdimi, musht tushirdimi, anglamay qolgandi.

Karim ham gangib qolgandi: - Qornimga tushgan zarba oyoqmidi, mushtmidi?

- Ahvollaring tuzukmi? - Hasan ota boplab ta'zirini yegan shilqim yigitlarga achinib qaradi. - Yordam chaqiraymi?

Salim bilan Karim Hasan ota oldida yor yorilmadi, yerga kirmadi.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 796 nusxada chop etildi. Buyurtma 55. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56****BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61****MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.


«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:**G'.HASANOV.****Navbatchi:****Y.MARQAYEV.****Sahifalovchi:****B.ABDULLAYEV.**

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009
Sotuvda narxi kelishilgan holda

